Nuh ibn Asad



Nuh ibn Asad

(? – 842)

(819-842)

Somoniylardan bo‘lgan Samarqand hokimi. *Tohiriylar*dan *Abdulla ibn Tohir* bilan birga *xalifalik*dan mustaqil siyosat yurgazishga intilgan, *Istaxriy* va *Ibn Havqal*larning yozishicha, xalifa *Mu’tasim* (833-842) bundan norozi bo‘lib *Abdulla ibn Tohir*ga noma yuborib, uni koyigan. *Abdulla* bu xatni Samarqandga jo‘natgan. Nuh ibn Asad o‘zining javobida Movarounnahrda 300 ming qishloq borligini, har bir qishloq bitta sarboz va bitta navkar berishga qodir ekanligini ko‘rsatib o‘tadi. Bu bilan u xalifadan qo‘rqish kerak emasligi, chunki faqat Movarounnahrning o‘zigina 600 ming sarboz va navkardan iborat qo‘shin to‘play olishini bildirgan. Bu davrda ko‘chmanchi turkiy qabilalar Shoshga ko‘p hujum qilib turardi. Shosh *Yah’yo ibn Asad* ixtiyorida edi. Uning iltimosiga ko‘ra, Nuh ibn Asad 840 yil Isfijobning turkiy qabilalaridan bo‘lgan hokimiga qarshi qo‘shin tortgan. Bu urush Nuh ibn Asadning g‘alabasi bilan tugagan. *Balozuriy*ning yozishicha, bu vaqtda Nuh ibn Asad ekinzorlar, tokzorlar, bog‘lar, qishloqlar va shaharlarni ko‘chmanchilarning hujumidan saqlaydigan katta mustahkam devor qurishni buyurgan.

2023-10-28 20:25:51